

KO`RGAZMALI REKLAMA VOSITALARNI BAJARISHDA TASVIR VA YOZUV YAXLITLIGINI TA`MINLOVCHI VOSITALAR

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy san'at ixtisosligi 1-
bosqich magistranti To'ychizoda Gulnoza Ibroxim qizi*

Ilmiy rahbar: Yuldashev Ibroxim

Annotatsiya: *Mamlakatimizdata'lim sifatini oshirishga qaratilgan tub islohatlar k'rib chiqilgan. Mazkur maqoladarivojlangan davlatlarning metodlari ya'ni reklama targ'ibotini yaratishda yozuvlarning va tasvirlarning o'ziga hosligini yoritib berish uchun ma'lumot va takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Yozuv san'ati, Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot, ta'lim sifati, tasvir va yozuv.*

KIRISH

XXI asr texnika asri. O`zbekiston mustaqillikning ilk islohotlarning izchil, bosqichma-bosqich o`tkazilishi natijasida bozor munosabatlari shakillandi iste`molchilar faoliyatiga o`ziga xos vositalar yordamida ta`sir o`tkazishning shakl va usullari amaliy faoliyatini boshladi. Mulkchilikning turli shakllarida xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning paydo bo`lishi, ichki va tashqi bozorda raqobatning kuchayishi tasviriy, reklama vositalariga extiyoj sezila boshladi. Buning natijasida mamlakatda reklama faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi hamda reklama bozori shakillandi.

TAHLIL VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda reklamani tasvirsiz tasavvur etib bo`lmaydi Biz ularni hamma joyda ya`ni bozorlarda savdo majmualarida, shahar va tuman markazlarida yoki prospektlar, gazeta jurnal e`lonlari, lavhatahtalar,internet saydlarida uchratamiz mumkin. Hozirgi davr badiy bezagi ob`ektlarni tasviri u bilan bog`liq axborotni idrok etishni jiddiy ravishda osonlashtiradi reklama haqidagi bilimlarni mustahkamlab borishni ta`minladi.

Yozuv san`atini idrok etishning dialektik usuli m`lum miqdorda rassom bezovchining kasbiy fikrlashini kengaytiradidi va birinchi galda u yozuvlarning ko`plab turlarini bilib tasavvur qila olishi undaydi. Bu bilan shu narsa nazarda tutiladiki ,xarflarni asoaiy turlarini bilishlari, ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini,shart sharoitlarini yoritib berib zamonaviy shakllarni yaratishga yordam beradi. Rassom amaliyotida bu yanada yngi sakl va mazmunlarni yaratishga xizmat qiladi. Xarf shiyorlarning ajralmas tarkibiy qismidir.Shuning uchun ko`rgazmali targibot vositalari yaratishda xarf shakli, ranglarni to`gri tanlab olish rassom uchun eng muxim vazifadir.Agar bu masala xususida atroflicha to`xtalib o`tdigan bo`lsak, umuman rassomlar va tashkilot rahbarlarining e`tibori m`muriy binolar va tashkilot binolarini bezashni doimo taraqqiy etib takomillashib borishini e`tiborga olishlari zarur.Xozirgi kunning eng dolzarb masalasi – bu ko`ragazmali tashviqot vositalarni takomillashtirib, estetik ko`rinishni yanada rang-barangligini ta`minlashdir. Bu ishlarni amalga oshirish uchun bu sohada mehat qilayotgan har bir ijodkor rassom o`zining kasb-maxoratini oshirish ustida tinimsiz izlanishi lozim.Har bir yozma matinning sifat darajasi uning mazmuni, badiiy texnik bezagiga bogliqdir. Biz quyida albatta badiiy jixatiga aloxida axamiyat beramiz va fikrlashamiz. Matinning tarkibi deganda asosiy tuzilishi mazmun jixatlari, matnni sakl bilan ko`zga tashlanishi va uning joylashuvi nazarda tutiladi.

Matinni oson o`qish yuqorida aytib o`tganimizdek yozuv xariflari belgisiga bogliqdir, chunki ulardan so`zlar, qatorlar, jumlar, abzaslar hosil bo`ladi. Oson o`qishning asosiy talabi xarfning qulay kattaligini tanlab olishga bog`liq.Grafik ko`rgazmalilik ko`zda tutilayotgan matn mazmuniga bog`liq xolda amalga oshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Agar matinning turli rasim va chizmalar bilan chambarchas bog`liq ekanligi xaqida so`z yuritsak , bu fikr quyidagi xolatlarga bogliq bo`ladi .

1. Matn va illyustratsiya parallel bir –biriga tayangan xolda uchraydi, aloxida xolda ularning axboroti kam ahamiyatga ega bo`ladi.

2. Illyustratsiya ostidagi matn maqsadni tushunarli, aniq lo`nda bolishini ta`minlaydi hamda ta`sirchanligi ortadi.

3. Axborot, matn yoki illyustratsiya bilan berilishi ranbaranglikni oshiradi.

4. Murakkab axborotlarda barcha vositalar qo`llanilishi mumkin.

5. "Ramz-illyustratsiyalar" bevosita matn bilan boglanmasligi mumkin yoki umumlashtiruvchi mazmunga ega bo`lishi mumkin.

Matinlarni tuzish sifati ko`rgazmali targibotda o`ta muhim jixat bo`lib, bunga matn mazmunini oson idroketish va tuzib olish bilan chambarchas bog`liqligini unutmash kerak.

Ko`pchilik mutaxasislarning fikriga ko`ra, san`atda bezovchi o`z goyalarini ifoda etish uchun hamma vaqt eng yahshi yangilik va betakrorlikni topish juda mushkul. Har bir rassom bezovchi boshqalardan nimalarnidir o`zlashtiradi va bu jarayon zanjiri cheksiz davom etadi. Lekin har bir ijodkor o`z ishiga qandaydir yangilik kiritadi va bu ijod deb ataladi. Yangilik eski poydevor asosida yuzaga chiqadi

Tasvir va yozuv ma`nosi mantig`ning birligi yaxlitlikning ikkinchi belgisi, deb hisoblash mumkin. Har bir, hato eng tajribasiz dizaynerga ham hazilomus "quvnoq" shrift mos tushushi ma`lum. Hatto qoidalarga xilof ravishda, matinni uslub jihatdan turli harflarda yozish, bir so`zda turli shriftlarni birlashtirish mumkin va h.k. Bundan tashqari rang-baraklikni ifodalash uchun bu matn so`zlarni tagiga chiziqcha tortish mumkin. Bu oddiy misoldir. Shrift tasvirning uslubi va ma`nosiga mos bo`lisi kerak. Tantanavorlik, bayramonalik yoki qahramonlik mavzulari shrifda o`z aksini topishi darkor. Bunday ishlarda jadvalni tugallab keyin unga shriftni "yopishtirish" yaramaydi. Bu hollarda shrift hamisha "begona" bo`ladi. Agar kompozitsiya muallif fikrida ikki qisimga bo`lingan holda tasavvr qilinsa, shuning o`ziyoq yozuv va tasvirning ozgina bolsa-da bir biridan sun`iy ajratilganligini payqash uchun kifoya qiladi. Shuning uchun tasviriy hamda yozuv unsurlaridan tashkil topgan kompozitsiya ustida ishlaganda, barcha ishni bir yola boshlash va davom ettirish kerak. Yozuv bilan

tasvir bir mavjudotning tarkibiy qismlari ekanligini hamisha yodda saqlamoq kerak.

Zamonaviy badiiy bezak tarixdan tashqarida emas, bor-yo`g`i uzliksiz tarixiy jarayonning bir xalqasidir. Kompozitsiyada yozuv va rasimni qanday qilib to`g`ri joylashtirish kerak? Albatta, rasimning plastikasiga muvofiq ravishda (yaxlitlikning birinchi belgisi). Chunki biron tarihiy mavzudagi surat turlicha bajarilishi mumkin. Demak, shrift har rasimga mos bo`lisi kerak.

XULOSA

U yoki bu tarixiy shriftni oddiygina ta`minlash bilan chegaralanish tavsiya qilinmaydi. Kompozitsiya tariixiy xususiyatga ega bo`lsa ham zamonaviylikka zamonaviylik chizgilari o`z aksini topishi darkor. Shrift va tasvir uyg`unligini ta`minlashga xizmat qiluvchi yana bir belgi mavjud, u kompozitsiya ko`laming yaxlitligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- Namangan Davlat Universiteti Pedagogika Fakulteti Maktabgacha ta`lim metodikasi kafedraasi "MAKTABGACHA TA'LIM QIYOSIY PEDAGOGIKA"
N. Abdusamatova. Namangan-2018
2. Buxoro Davlat Universiteti qurbonova O`lmas Usmonova "QIYOSIY PEDAGOGIKA" Buxoro-2013
3. <https://kun.uz>
4. <https://world.uz>
5. <https://warfields.ru>